

*O‘zbekiston Jurnalistika va
Ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Xalqaro Munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy
fanlar fakulteti, Siyosatshunoslik yo‘nalishi
2-bosqich talabasi Rustamov Husan To‘lqinjonovich*

OAV – SIYOSIY HAYOT KO‘ZGUSI

СМИ – ЗЕРКАЛО ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ

MEDIA IS A MIRROR OF POLITICAL LIFE

Annotatsiya: Bugungi rivojlanayotgan jamiyatimizda doimiy axborot iste'mol qiluvchi insonlar talaygini topiladi. Ayni damda Axborot vositalarini o'z ichiga oluvchi Ommaviy axborot vositalari – ularni xolis, faqatgina to'g'ri informatsiyalar orqali e'lon qilishi va tarqatish kerakligi orqali, hamda XXI asrdan boshlab butun dunyo OAVlari o'zini jamiyatda "To'rtinchi hokimiyat" deya hayqirayotgan bir paytda mamlakatlarning siyosiy hayotida OAV o'zini muhim davlat unsuri ekanligini isbotlab kelmoqda. Mazkur maqolada ayni paytda jamiyatimizda hamda dunyo hamjamiyatida OAVning siyosiy maqomi haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: В современном развивающемся обществе множество людей постоянно потребляют информацию. На данный момент средства массовой информации, к которым относятся и средства информации - через необходимость публиковать и распространять их беспристрастно, только с достоверной информацией, а с XXI века средства массовой информации всего мира зарекомендовали себя как «Четвертая власть». В обществе. В момент криков средства массовой информации проявляют себя как важный элемент государства в политической жизни стран. В то же время в данной статье говорится о политическом статусе СМИ в нашем обществе и мировом сообществе.

Abstract: In today's developing society, there are many people who constantly consume information. At the moment, the mass media, which includes

the information media - through the need to publish and distribute them impartially, only with correct information, and from the XXI century, the mass media of the whole world have established themselves as the "Fourth Estate" in society. At the time of shouting, mass media is proving itself to be an important element of the state in the political life of the countries. At the same time, this article talks about the political status of the media in our society and the world community.

Ka'lit so'zlar: OAV, senzura, avtokratiya, demokratiya, jamiyat, teledemokratiya, yangi dunyo, to'rtinchi hokimiyat, muxolifat.

Ключевые слова: СМИ, цензура, автократия, демократия, общество, теледемократия, новый мир, четвертая власть, оппозиция.

Key words: media, censorship, autocracy, democracy, society, tele-democracy, new world, fourth power, opposition.

KIRISH

Ommaviy Axborot vositalari – jamiyat kuzgusi. OAV siyosatga xolis fikr beradigan xalq qo'lidagi siyosiy vosita hisoblanadi. Agar u avtoritar toki diktator qo'lida bo'lsa u shunchaki o'zidan badbo'y is taratadigan balchiq yoki inson hojati chiqaradigan, uyning bir chekkasidagi "noxush" joy bo'lib qolaveradi. Demokratik inson qo'lida esa sog'lom va insonga huzr baxsh ta'sir etuvchi mazali taom va xushbo'y hidga aylanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda OAV haqiqiy kuch, ushbu mamlakatlar jurnalistlari yoxud "To'rtinchi hokimiyat" egalaridan siyosatchilar, vazirlar hattoki kazo-kazo qudratli davlatlarning prezidentlari ham qo'rqishadi, balki chin dildan hurmat ham qilishadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa buni bir necha qiyofasini ko'rishimiz mumkin. U ko'p hollarda avtoritar rejim egalarining qo'lida qolib ketmoqda yoki rivojlanish tipidagi davlatlar o'zini "gigant davlatlar"ning "qora ro'yhati"dan chiqish maqsadida yuzaki yohud "ikki tomonlama fikr"¹ siyosatini (bu siyosatning bir tomoni – ochiq, yana bir tomoni esa "ochiq tomonni yopish" – albatta ma'lum muddatdan keyin) yuritmoqdalar.

¹ Bu mening shaxsiy fikrim, OAVga nisbatan ishlatilayotgan senzurani ifodalash uchun qo'llanilgan atama

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xo'sh, OAV bizning jamiyatda siyosiy kuchga aylanmoqdam? degan savol paydo bo'ladi. Oxirgi yetti yilgi natijalarga qarasaq hukumatimiz nisbatan o'zining 2017-yildan keyingi besh yilida yoxud COVID-19 inqiroziga yakuniga qadar ochiqlik siyosatini, senzura bekor qilish tamoyilini olib bordi. Lekin oxirgi ikki yilda esa bundan sekinlik bilan ortga chekinish siyosati olib borilmoqda. Bu rasman tan olinmasada lekin jurnalistlarga zimdan qo'llanilgan tahdidlar, hukumat qarorlari-yu jurnalist, blogerlarga nisbatan ommaviy "fikr erkinligi"ga qarshi ish olib borganlikda gumon qilinganlar sudida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Men "To'rt hokimiyat"ni – oliy sud ramzi Yustitsiya (bir qo'lida tarozi, bir qo'lida qilich tutib turgan, ko'zi bog'langan qadimgi yunon mifologiyasidagi ma'buda) timsolida tasavvur qilaman. Mening shaxsiy fikrimcha, bu yerda tarozining bir pallasida qonun chiqaruvchi hokimiyat, yana bir pallasida esa ijro etuvchi hokimiyat bo'lib, ushbu ikki pallani muvozanatda tutib turuvchi tarozi esa oliy sud ramzidir. Bu yerda yana ikki predmed ko'zi bog'langan ayol va qilich qolib ketmoqda, qarashlarimga ko'ra ayol – OAVni ifoda etuvchi vosita, u shunday vositaki, agar Yustitsiyaning (yoxud OAVning) o'zida adolat bo'lsa bu yuqoridagi uch hokimiyat bir-birining qarshilikisiz, mustaqil va erkin faoliyat yuritadi hamda bir-biridan mustasno holatda fikrlaydi. OAVda adolatsizlik, zo'rovonlik ko'r-ko'rona yashirilsa tarozilarni bir pallasida bo'ladigan salbiy voqea bevosita bir birga ta'sir eta boshlaydi va muvozanat buziladi. Ayol qo'lidagi qilich esa bu – xalq. Zamonamizdan kelib chiqqan holda OAV iste'molchilari bo'lmish xalq uni qay yo'sinda iste'mol qilmasin, chek-chegarasiz rivojlanib kelayotgan davrda aynan OAV orqali qo'zg'alishishi ro'y bermoqda. Buni biz biz birgina "Arab bahori" misolida yoxud undan sal oldinroq, Saddam Husaynning qatl etilishini ommaviy ravishda, to'g'ridan-tog'ri jonli efirda namoyish etilganligi, aynan OAV tomonidan katta tayyorgarlik ko'rilganligi (AQSH misolida) yoki "Arab bahori"dagi Liviya diktatori Kaddafiyning o'lim jarayoni OAV va internet vositalari orqali kadrlarga saqlanib qolganligi misollarida ko'rishimiz mumkin. XXI asrda OAVning eng rivojlanayotgan tipiga kirgan internetni faqatgina endi OAVning o'zi nazorat eta

oladi, bunda ham “to‘rtinchi hokimiyat”ni tan olgan davlatlardagina jilovni qo‘lga olishi mumkin.

OAV – bu siyosiy kuch. XX asr 60-yillarida Jon Kennide AQSHda prezidentlik saylovlarida aynan o‘z imidje orqali emas, OAV vositasi natijasida g‘alabaga erishganini ko‘rishimiz mumkin, yoki “Uottergeyt ishi”da asosiy rolni kim o‘ynagan deb o‘ylaysiz? Eshitish moslamalarini joylashtirgan respublikachilarmi yoki jabrlangan demokratlar? Yo‘q bu yerda asosiy rolni OAV bajargan. U aynan shu davr mobaynida (1972-1974 yillar) Prezident Richard Niksonning “impechmenti”ni amalga oshirgan vosita bo‘la oladi. O‘sha davrda amerikalik sotsiologlar tomonidan ishlatilgan atama “amerika tarixidagi eng jiddiy siyosiy inqiroz” – OAVning bilvosita “To‘rtinchi hokimiyat” ekanligini isbotlab bergandi.

OAV – siyosatda jamoat faoliyati bilan boshqa turlariga qaraganda ko‘proq ma‘lumot almashishning maxsus vositalarini talab qiladi. Iqtisodiyot bozorining o‘zini o‘zi tartibga solish asosida faoliyat ko‘rsata olsa, siyosatni bilvosita aloqa shakllarisiz (gazeta, radio, televidenie va boshqalar) amalga oshirish mumkin emas. Siyosatda amalga oshiriladigan maqsadlarning jamoaviy tabiati ularni makonda ajratilgan fuqarolar tomonidan majburiy ravishda anglash va ularning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Odamlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilishda bunga erishib bo‘lmaydi, bu yerda maxsus ma‘lumot vositalari kerak.

XXI asrdanoq o‘zining ustunligini va hech qanday senzura qarshi chiqolmasligini isbotlagan OAV o‘zining yangi dunyo tartibotini va o‘z ommaviy-jahon sivilizatsiyasini boshlamoqda. “Tinchlik va sivilizatsiyaning kelajaki dunyoda katta sivilizatsiyalarning siyosiy, ruhiy va intellektual yetakchilarning bir-birini tushunishlari va hamkorlik qilishlariga bog‘liq bo‘lib qoldi...”² – deb o‘z fikrlarini bayon etgan edi bu xususida Samuel Fillips Hantington.

² “Sivilizatsiyalar To‘qnashuvi va yangi dunyo tartibi” (1996) asaridan, 557-bet, muallif S.F.Hantington. “Yangi asr avlodi”, 2023-yilgi nashr.

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun umumiy qabul qilingan normalar mavjud. Ular faqat hukumatning og‘zi bo‘la olmaydi. “Siyosiy yangiliklar” va “siyosiy dastur” tushunchalari o‘rtasida aniq farq bor. Agar siyosiy dasturlar turli siyosiy kuchlar va aholi guruhlarining pozitsiyasini ifodalashi mumkin bo‘lsa, unda yangiliklar uchun taqdimotchining sharhlari sonini qat’iy cheklash qoidasi mavjud: ulardan qochishning iloji bo‘lmagan hollarda ular pozitsiyalarni ta’kidlashlari kerak. Siyosiy ma’lumotlar matnida psixologik urush arsenalidagi usullarni hisobga olmaganda, baholash xarakteridagi mantiqiy va lingvistik konstruktsiyalar bo‘lmasligi kerak: faktlarni manipulyatsiya qilish, ishonarli ritorika, maqsadli intonatsiya va yuz ifodalari, maxsus tahrirlash texnikasi va boshqalar. Xabar mavzulari va personajlar tarkibi har qanday muammolar guruhini emas, balki jamiyatning butun ijtimoiy tuzilishini va unga taalluqli muammolarni aks ettirishi kerak.

Siyosatda hozirgi vaqtda rivojlanayotgan axborot yoki telekommunikatsiya inqilobining asosiy xususiyati axborotni jo‘natuvchi va oluvchi o‘rtasidagi bir tomonlama aloqani ko‘p funksiyali va interaktiv aloqa bilan almashtirib, axborot almashinuvida ishtirok etish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu texnologiya plyuralizmga, mahalliy manfaatlarni ifodalash uchun keng imkoniyatlarga, vakillik demokratiyasini hech qanday demokratik institutga zarar yetkazmagan holda “ishtirokchi demokratiya”ga almashtirishga yo‘l ochadi, deb ishoniladi. Ushbu hodisani ifodalash uchun hatto maxsus “teledemokratiya” tushunchasi ham ixtiro qilingan. “Teledemokratiya”ni biz “Mamlakatlar tanazzuli sabablari” kitobidagi quyidagi jumalarda ko‘rishimiz mumkin: “Xitoydagi hozirgi ekstraktiv institutlar ham Xitoy hukumatining OAV ustidan nazoratiga benihoya bog‘langan bo‘lib, bu nazorat avval qayd etilganidek, mukammal yo‘lga qo‘yilgan.”³

Siyosiy jamiyatda OAVning yaxshi tomonlari shundaki – bu vosita sir yashirmaydi va quyidagilarni qila olishi mumkin:

³ “Mamlakatlar tanazzuli sabablari” Daron Ajemo’g‘li va Jeyms A. Robinson muallifdagi kitob. 669-bet, nashr 2023-yil. ”Asaxiy Books” nashriyoti.

- Haqiqatga yetish va siyosatchilar yashirmoqchi bo'lgan sirlarni ommaga oshkor qilish, barchaga hukumatning asl niyatlari haqida gapirib berish;
- Fuqarolarga siyosat: qaysi qonunlar qabul qilinganligi, nima muhokama qilinayotganligi va mamlakat qay tomonga qarab ketayotganligi haqida ma'lumot berishga ko'maklashish;
- Siyosatchilarga o'tkir savollar berib, ularning tazyiqqa qanday dosh berishlarini keng ommaga namoyish qilish;
- Odamlar ongli ravishda saylashlari uchun saylov oldi va'dalarni e'lon qilish;
- Yangiliklarni tarixiy jabhada keltirish: hozirgi shov-shuvli voqealar o'tmishdagi hodisalardan sado berishi mumkin. OAV tarixiy chiziqlarni o'tkaza oluvchi va bizga hozirgi kunni tushunishga yordam bera oluvchi mutaxassislarni ixtiro qiladi.

Aynan OAVning sir yashirmasligi jamiyatni turli xil manipulatsiyaga duchor qilishi mumkin. Shu bois u quyidagi ehtimoliy siyosiy muammolarga sabab bo'lib qoladi:

- O'ziga e'tibor tortish maqsadida siyosiy hodisalarni jiddiylashtirib, yangilikni hayratlanarli voqea qilib ko'rsatish;
- Biron bir partiyaga yoki mafkuraga nisbatan kuchli salbiy fikrni ifodalash;
- Poraxo'rlik. Telekanal yohud veb-saytlarning jurnalistlari, sharhlovchilari yoki egalari qandaydir siyosatchini ijobiy yoki salbiy qiyofada taqdim qilish uchun pora olishi mumkin (yaxshiyamki, boshqa jurnalistlar bu sxemani fosh qilishi mumkin, lekin shart emas).
- Ularga ish haqi to'layotgan rahbariyatning ta'siriga tushish — garchi bu poraxo'rlik bo'lmasa ham. Yangilik tarqatuvchi kompaniyalar siyosiy partiyaning g'alabasi yoki mag'lubiyatidan iqtisodiy manfaatlarga yoki afzal ko'ruvchi narsalarga ega qandaydir milliarderga tegishli bo'lishi mumkin.
- Ekstremistik g'oyalarga ega kishilarni efirga kiritish. Agar bu uzoq davom etsa, kishilar keskin g'oyalarni to'g'ri deb qabul qilishni boshlaydi. (To'g'ri, vaqt o'tishi bilan kishilarning dunyoqarashlari o'zgaradi. Masalan, Qadimgi

Gretsiyada ro'y bergan va o'sha vaqtda oddiy deb qaralgan ayrim narsalar hozirgi kunda yaxshilik deb hisoblanadi)

XULOSA

Demak, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining o'rni juda katta. Bundan tashqari, bu rol o'sib bormoqda va o'sish yangi aloqa vositalarini joriy etish bilan bog'liq bo'lgan spazmodik⁴ xususiyatga ega.

Demokratik jamiyatlarda, jumladan, bugungi kunda mamlakatimizda ham ma'lum darajada davlat taqozosidan xoli bo'lgan ommaviy axborot vositalarida davlat tomonidan odamlarning moddiy turmush darajasini pasaytiruvchi, huquq va erkinliklarini cheklovchi ayrim chora-tadbirlar ko'pincha tanqid qilinadi. Ommaviy axborot vositalarining ushbu harakatlari siyosatni ham ochib beradi – ayrim muxolifatchi siyosiy kuchlar, oligarxik guruhlar, siyosiy partiyalar va harakatlarning ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi va ularning materiallari mazmuniga ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini ochib beradi. Bu, qoida tariqasida, moddiy va iqtisodiy vositalar – ayrim ommaviy axborot vositalarini moliyalashtirish, jurnalistlar, muharrirlarga yuqori to'lovlar va boshqa choralar orqali sodir bo'ladi. Natijada, ayrim bosma nashrlar, tele va radiokanallar mavjud hukumatga muxolifatga aylanadi.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR

1. “Sivilizatsiyalar To'qnashuvi va yangi dunyo tartibi”, muallif S.F.Hantington, 1996-yil
2. “Mamlakatlar tanazzuli sabablari” Daron Ajemo'g'li va Jeyms A.Robinson muallifdagi kitob, 2011-yil.
3. <https://www.wikipedia.org/>
4. <https://www.ziyouz.com/>

⁴ Siyosiy betartib xususiyatga nisbatan ishlatiladigan atama.